



BEMORLAR BILAN ISHLASH MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH JIHATLARI.

SamDTU II-bosqich talabasi

Shodmonov Farrux Ismat o'g'li

Kalit so'zlar: Soha, muloqat, madaniy, shifokor, faoliyat, davo, yordam, tibbiyot xodimi, kasallik, zamonaviy, bemor.

Annatsiya: Ushbu maqola Madaniy yondashuv zamonaviy sog'liqni saqlash tizimida bemorlarning turli ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lib, bu yondashuv nafaqat shifokorning kasbiy mahoratini oshirishga, balki bemorlarning tibbiy yordamga nisbatan ijobiy munosabatini shakllantirishga ham xizmat qiladi.

Keywords: Healthcare Sector, Communication, Cultural Competence, Physician, Professional Practice, Treatment, Medical Assistance, Healthcare Worker, Disease, Modern Medicine, Patient.

Abstract: This article analyzes the importance of a culturally sensitive approach in the modern healthcare system as a key factor in addressing the diverse needs of patients. The study emphasizes that cultural competence not only improves physicians' professional performance but also strengthens patients' trust and positive attitudes toward medical services. Furthermore, the implementation of culturally appropriate communication strategies contributes to more effective diagnosis, treatment, and patient satisfaction.

Ключевые слова: Сфера здравоохранения, коммуникация, культурная компетентность, врач, профессиональная деятельность, лечение, медицинская помощь, медицинский работник, заболевание, современная медицина, пациент.

Аннотация: В статье анализируется значение культурно ориентированного подхода в современной системе здравоохранения как важного фактора удовлетворения разнообразных потребностей пациентов.



Подчеркивается, что культурная компетентность способствует повышению профессиональной эффективности врачей, укреплению доверия пациентов и формированию позитивного отношения к медицинским услугам. Кроме того, применение культурно адаптированных коммуникативных стратегий способствует повышению качества диагностики, лечения и удовлетворенности пациентов.

Bugungi kundagi sog'liqni saqlash sohasida faoliyat olib borish uchun nazariy, amaliy, davolash choralari bilish bilan birga ma'daniy va psixologik bilimlarni bilish ham shart va zarur. Shifokorlik faoliyatida bemorlar bilan ma'daniy aloqalar va so'zlashish uslublari shifokorlar davolashga uchun shu jumladan bemorlar uchun ham davo topishga katta yordam beradi. Shuning uchun tibbiyot xodimi va bemor o'rtasidagi muloqot ma'daniyatini o'rganish hech qachon o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Shifokorlik kasbida ma'daniy aloqa va muomola ma'daniyati alohida o'ringa ega hisoblanadi. Uning oldida har doim tibbiyot xodimi va bemor o'rtasidagi muloqot psixologiyasi bilan bog'liq bo'lgan turli xil vazifalar.

Jumladan: Madaniy yondashuv zamonaviy sog'liqni saqlash tizimida bemorlarning turli ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lib, bu yondashuv nafaqat shifokorning kasbiy mahoratini oshirishga, balki bemorlarning tibbiy yordamga nisbatan ijobiy munosabatini shakllantirishga ham xizmat qiladi. Shu bilan birga, texnologik taraqqiyot va zamonaviy davolash usullari shifokorlarga bemorlarning ehtiyojlarini qondirishda yanada qulay sharoit yaratib, sog'liqni saqlash tizimida yuksak xizmat ko'rsatishni ta'minlamoqda. Tibbiyotda madaniy muloqot va yondashuvning samarali qo'llanilishi, sog'liqni saqlash tizimining rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Bemorlardagi ruhiy o'zgarishlarni, buning qay darajada ijobiy yoxud xavfli ekanligini aniqlash ular bilan olib borilgan muloqot jarayonida, turli psixologik amaliyotlarda o'z ifodasini topadi. Inson aqliy va fiziologik faoliyatining mevasi-nutq orqali muloqot jarayonida namoyon bo'ladi. Shu sababdan nutq madaniyatiga qadim davrlardan katta e'tibor qaratib kelingan. Nutq madaniyatiga, bemor bilan muloqot jarayoniga bekam-u ko'st amal qilish oson ish emas. Bu



tibbiyot xodimidan yuksak ruhiy manbani, yuqori madaniyatni, o'ta nozik darajadagi sezgirlikni, sabr-matонат va, hattoki, aktyorlik mahoratini ham talab etadi.

Shifokor bemor bilan muloqotni amalga oshirayotgan vaqtda har bir narsani e'tiborga olmog'i lozimdir. U bemor nutqiga qanchalik diqqatini qaratga, o'z so'zlayotgan so'ziga ham shunchalik e'tiborli bo'lishi muhimdir. Bunda shifokorning nutqi chiroyli, aniq, tushunarli, sodda bo'lishi bilan birga nutqning ohangi, so'zlarning talaffuzi, hattoki, nutq so'zlovchining ovozi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari shifokorning o'zi qanday ruhiy (charchagan yoki stress holati) holatda bo'lmasin bemor bilan muloqot jarayonida uning nutqida bu narsa sezilmaligi, aksincha, nutq doimo yaxshi kayfiyatda, samimiylik bilan amalga oshirilmog'i kerak. Va shifokor nutqining eng muhim jihati undagi ishonch ohangining mavjudligidir. Ya'ni, shifokorning bemor oldida ikkilanishi, qayg'uga botishi, ishonchsizlikka berilishi, ayniqsa, buni nutqi orqali sezdirib qo'yishi aslo mumkin emas.

Og'ir xastalikni boshdan kechirayotgan bemorning ruhiyati ham ancha kuchsizlanib qoladi va bu o'z navbatida uning psixologiyasiga ham turli ta'sirlarni o'tkazmay qolmaydi. Binobarin, bu davrda bemor ancha ta'sirchan, jizzaki, pessimist, e'tiborsiz bo'ladi. U atrofida kechayotgan voqea-hodisalarga qiziqish bildirmaydi, o'zini doim oqimdan chetda ko'rishni xohlaydi. Soha mutaxassislarining ta'kidlashicha, hatto, ayrim bemorlar o'zlarining ruhiy azoblarini ancha bo'rttirib itodalashga moyil bo'ladilar va ular orasida o'zlaridagi kayfiyatni boshqalarga ham "yuqtirishga" urinuvchilari ham yo'q emas. Shu sababdan ular bilan nutqiy muloqot jarayonida har bir so'z, uning talaffuzi, ohanggi masalasiga katta e'tibor qaratiladi. "Yaxshi so'z – jon ozig'i" degan maqolni dono xalqimiz bejizga aytishmagan. Haqiqatan, o'rnida topib aytilgan yaxshi va oqil so'z tanga jon bag'ishlash qudratiga ega. Ammo so'z so'zlovchi nutqi qaratilgan insonning ruhiyati, uning ichki kechinmalari va nutq vaziyatini ham inobatga olishi zarur. Aks holda so'z tildan chiqqach u boshqa maqsadlarga ham "xizmat qilishi" mumkin.



ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Xolmonova Z., Usmonova Z. Sh. Psixolingvistika. – Toshkent, 2018. –B. 8-10.
2. www. hozir. org w December 2022 1386 www.oriens.uz Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences Scientific Journal Impact Factor Advanced Sciences Index Factor VOLUME 2 | ISSUE 12 ISSN 2181-1784 SJIF 2022: 5.947 ASI Factor = 1.7
3. Journal of Analytical Synergy and Scientific Horizon Volume 1, ssue 3, 2025.

BEMORLAR BILAN ISHLASHDA MA'DANIY NUQTAI NAZAR

Djalilova Zarnigor Obidovna., Bobomurodov Jaloliddin Tulqinovich